

INGLIZ TILSHUNOSLIGIDA DARAJA KATEGORIYASI TADQIQINING NAZARIY ASOSLARI

Aslonova Hurriyat Ibodullayevna

O'zDJTU

hurriyataslanova2@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada ingliz tilshunosligida daraja kategoriyasining funksional-semantik maydon (FSM) sifatidagi nazariy asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda daraja ma'nosining til sathlarida (fonetik, morfologik, leksik, sintaktik va frazeologik) namoyon bo'lishi A.V. Bondarko nazariyasi asosida yoritilgan. Maqolada daraja maydonining yadro va periferiya tuzilishi ingliz va o'zbek tillari misolida qiyosiy o'rganilgan.

Kalit so'zlar: daraja kategoriyasi, funksional-semantik maydon, yadro va periferiya, intensivlik, graduallik, qiyosiy tilshunoslik, til sathlari.

Abstract: This article analyzes the theoretical foundations of the category of degree as a functional-semantic field (FSF) in English linguistics. Based on A.V. Bondarko's theory, the manifestation of degree meaning across linguistic levels is explored. The article examines the core and peripheral structure of the degree field through a comparative study of English and Uzbek languages.

Key words: category of degree, functional-semantic field, core and periphery, intensity, graduality, comparative linguistics, linguistic levels.

Аннотация: В данной статье анализируются теоретические основы категории степени как функционально-семантического поля (ФСП) в английском языкознании. На основе теории А.В. Бондарко исследуется проявление значения степени на различных языковых уровнях. В статье рассматривается ядерно-периферийная структура поля степени на примере английского и узбекского языков.

Ключевые слова: категория степени, функционально-семантическое поле, ядро и периферия, интенсивность, градуальность, сравнительное языкознание, языковые уровни.

KIRISH

Zamonaviy tilshunoslikda tillarni o'rganish jarayoni nafaqat grammatik qoidalarni egallash, balki til birliklarining semantik va pragmatik xususiyatlarini chuqur anglashni ham talab etmoqda. Shu bilan bir qatorda, turli tillarda mavjud bo'lgan lingvistik kategoriyalarni qiyosiy o'rganish, keng qirrali tahlil qilish va hayotiy misollar bilan taqqoslab, o'xshash va farqli jihatlarini nutqda qo'llay olish, til o'rganuvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Lingvistik kategoriya lisoniy tizimda umumiy grammatik yoki semantik belgilarga ega bo'lgan birliklar majmui sifatida qaraladi. U til orqali ifodalanayotgan hodisalarning muayyan umumlashtirilgan xususiyatlarini aks ifoda etadi.

Tilshunoslikda mavjud kategoriyalar qatorida daraja kategoriyasi ham o'ziga xos xususiyatlari bilan birga ahamiyatlidir jumladan, shaxs, narsa-buyum, mavhum hamda aniq voqelik belgisi ma'lum kategorial darajada aks etadi. Daraja kategoriyasi yordamida belgining kuchayishi yoki kamayishi, ya'ni intensivlik darajasi ifodalanadi. Ushbu kategoriya turli tillarda o'ziga xos vositalar orqali namoyon bo'lib, ularni qiyosiy o'rganish hamda muhim ilmiy izlanishlar olib boorish bilan ahamiuyatlidir.

Mazkur kategoriyani chuqurroq keng qamrovli tahlil qilishda funksional-semantik maydon yondashuvi juda muhim o'rin egallaydi, chunki u daraja ma'nosining turli lingvistik

vositalar orqali ifodalanishini tizimli ravishda o'rganish imkonini beradi. Ilmiy tadqiqot izlanishlarda "maydon" atamasidan foydalanilar ekan, ushbu nomlanish mohiyati shuni ta'kidlaydiki, bir-biri bilan bevosita semantik jihatdan bog'liq bo'lgan ma'lum bir tildagi so'zlar, gaplar va nutqni ifodalovchi til birliklari maydoni nazarda tutiladi.

Tilshunoslikda "Semantik maydon" atamasini birinchi bo'lib Gunther Ipsen olib kirgan. Tillarni qiyosiy o'rganishda maydon nuqtai nazaridan, nazariy jihatdan yondashish eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi.

O'zbek tilshunos olimi, A.Abdiazizovning ta'kidlashicha, "semantik yoki tushuncha maydoni" ma'nolari bilan bog'langan so'zlarni birlashtiradi. Bu kabi so'zlar, odatda, bir leksik-semantik guruhni tashkil qiladi. A. Bondarko aspektual ma'nolarni o'rganishda semantik belgilar muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, til birliklarini tahlil qilishda faqat grammatik shakllar emas, balki kontekst va leksik ma'no ham muhim rol o'ynaydi. Shu asosida olim tomonidan funksional-semantik kategoriya nazariyasi ishlab chiqilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda qiyosiy-tipologik tahlil va funksional-semantik maydon metodlaridan foydalanildi. Funksional-semantik maydon (FSM). Tilning turli sathlaridagi (morfologik, leksik, sintaktik) birliklarni umumiy bir ma'no (masalan, daraja, vaqt, shaxs) atrofida birlashishini isbotlab bergan.

Daraja kategoriyasi funksional-semantik maydon sifatida tahlil qilinganda, uning markazida (yadroda) sifat va ravishlarning darajalanishi kabi asl grammatik vositalar tursa, uning chekka qismlarida (periferiyada) turli uslubiy bo'yoqqa ega bo'lgan leksik, frazeologik va sintaktik birliklar joylashadi. Bu esa daraja ma'nosini nafaqat grammatik, balki chuqur pragmatik tushuncha sifatida o'rganishni taqozo etadi. Daraja funksional-semantik maydonining (FSM) o'ziga xos xususiyati shundaki, u lisoniy tizimining barcha sathlaridagi birliklarni o'z ichiga qamrab oladi. Bondarko nazariyasiga ko'ra, mazkur maydonning markaziy va periferik qismlarini quyidagi sathlar kesimida tahlil qilish mumkin:

TADQIQOT NATIJALARI VA TAHLILI

1. Morfologik sath. Bu daraja maydonining yadrosini (core) tashkil etib, ingliz tilida sifat va ravishlarning daraja ko'rsatkichlari (-er, -est, more, most) orqali ifodalanadi. O'zbek tilida esa bu vazifani -roq, -gina kabi affikslar bajaradi. Masalan, "kattaroq" va "bigger" birliklari belgining nisbiy ortishini ko'rsatuvchi eng barqaror grammatik vositalardir.

2. Leksik-semantik sath. Bu sathda daraja ma'nosi maxsus so'zlar — intensifikatorlar orqali namoyon bo'ladi. Bizning kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, leksik sathda daraja nafaqat belgining ortishini (very, extremely, juda, nihoyatda), balki uning minimal nuqtasini ham ifodalaydi. Masalan, "zo'rg'a turdi" yoki "bazo'r gapirdi" birliklarida harakatning eng quyi darajasi aks etgan bo'lsa, ingliz tilidagi "hardly" yoki "barely" ravishlari unga funksional ekvivalent bo'la oladi.

3. Fonetik sath. Daraja funksional-semantik maydonining mazkur sathi ko'proq og'zaki nutq va diskursda faol aks etadi. Fonetik sathda daraja ma'nosi asosan unli tovushlarning cho'zilishi, urg'u va o'ziga xos ohang orqali ifodalanadi. Masalan, ingliz tilidagi "It was a huuuuge mistake!" yoki o'zbek tilidagi "Kattaaaa konfet berdi" kabi misollarda unli tovushning cho'zilishi belgining oddiy me'yordan ancha yuqori ekanligini ko'rsatadi. Jumladan, so'zlashuv nutqida hayrat yoki hayajonni ifodalovchi "Voy buuu!" kabi interyeksiyalarda ohangning ko'tarilishi (intonation peak) daraja maydonining fonetik periferiyasiga yorqin misol bo'la oladi.

4. Sintaktik sath. Ushbu sathda daraja ma'nosi gap qurilishi va so'zlarning o'zaro bog'lanish usullari orqali namoyon bo'ladi. Ayniqsa, o'zbek tilida reduplikatsiya (takror) hodisasi harakat darajasini oshirishda yetakchi o'rin tutadi. Masalan, "Savollar quyulib-quyulib kelyapti" yoki "Shoshib-pishib gapirdi" kabi jummalarda so'z takrori harakatning shiddati va yuqori intensivligini bildiradi. Ingliz tilida esa bu ko'pincha qiyosiy konstruksiyalar yordamida beriladi: "Questions are pouring in" yoki "It's getting worse and worse".

5. Frazelogik-metaforik sath. Mazkur sath daraja maydonining keng qamrovli periferik qismi bo'lib, unda belgining darajasi obrazli o'xshatishlar orqali maksimal nuqtaga ko'tariladi. O'zbek tilidagi "Itday ochman", "Yeldek uchib keldi" yoki "Pashshadan fil yasamoq" kabi iboralarda daraja miqyosi mantiqiy giperbolizatsiya qilingan. Ingliz tilidagi muqobillari sifatida esa "As hungry as a wolf", "On cloud nine" (to'qqizinchi/yettinchi osmonda) yoki "To make a mountain out of a molehill" kabi birliklarni keltirish mumkin. Bu yerda daraja ma'nosi so'zning o'zidan emas, balki u hosil qilgan obrazli tasvirdan anglashiladi.

XULOSA

Mazkur maqolada amalga oshirilgan nazariy tahlillar shuni ko'rsatadiki, daraja kategoriyasi ingliz va o'zbek tilshunosligida nafaqat morfologik kategoriya, balki keng qamrovli funksional-semantik maydon sifatida talqin qilinishi maqsadga muvofiq. Ushbu maydonning yadrosini sifat va ravishlarning daraja shakllari tashkil etsada, uning periferiyasi fonetik, leksik, sintaktik va frazeologik sathlardagi turli vositalar bilan boyitilgan. Tadqiqot davomida keltirilgan misollar daraja ma'nosining til tizimidagi universalligini va uning barcha lisoniy sathlarda o'zaro uzviy chambarchas bog'liqlikda namoyon bo'lishini isbotlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abduazizov, A. (2010). Tilshunoslik nazariyasiga kirish. Sharq.
2. Bondarko, A. V. (1991). Teoriya funksionalnoy grammatiki (Theory of functional grammar). Nauka.
3. Ipsen, G. (1924). Der neue Sprachbegriff (The new concept of language). Zeitschrift für Deutschkunde.
4. Mahmudova, N. R. (2017). Ingliz va o'zbek tillarida graduallikning lisoniy ifodalanishi [Linguistic expression of graduality in English and Uzbek]. National University of Uzbekistan.